KONFERENSIYALAR UZ

ANJUMANLAR PLATFORMASI

# O'ZBEKISTON – 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI

## II RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

IYUN, 2025-YIL

O'ZBEKISTON
2030

KONFERENSIYALAR UZ

ANJUMANLAR PLATFORMASI

# O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM ISTIQBOLLARI

## II RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2025-yil, iyun

**TOSHKENT-2025**

**ISBN 978-9910-09-204-6**

**O‘ZBEKISTON – 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM ISTIQBOLLARI.** II Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 138 bet.

**Elektron nashr**: https://konferensiyalar.uz/uzbekistan-2030

**Konferensiya tashkilotchisi:** “Scienceproblems Team” MChJ

**Konferensiya o‘tkazilgan sana:** 2025-yil, 23-iyun

**Mas’ul muharrir:**
Isanova Feruza Tulqinovna

**Annotatsiya**
Mazkur nashrda “O‘zbekiston — 2030: innovatsiya, fan va ta’lim istiqbollari” nomli II Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi doirasida taqdim etilgan ilmiy maqolalar to‘plami jamlangan. Unda O‘zbekistonning turli oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari, tarmoq tashkilotlari, mustaqil tadqiqotchilar tomonidan taqdim etilgan ijtimoiy-gumanitar, iqtisodiyot, huquq, biologiya, tibbiyot va boshqa sohalarga oid maqolalar kiritilgan. Maqolalarda ilm-fanning zamonaviy yo‘nalishlari, innovatsion texnologiyalar, ta’lim islohotlari hamda barqaror taraqqiyotga oid masalalar muhokama qilingan. To‘plam akademik izlanishlar, amaliy tajribalar va ilmiy xulosalarni birlashtirgan holda, fanlararo integratsiyani chuqurlashtirish va ilmiy hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:** ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsiya, fan va ta’lim, O‘zbekiston 2030, barqaror rivojlanish, ilmiy izlanishlar, fanlararo integratsiya, ilmiy hamkorlik, texnologik taraqqiyot, zamonaviy ta’lim.

**ISBN** 978-9910-09-204-6

**Barcha huqular himoyalangan.**
© Scienceproblems team, 2025-yil
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

# MUNDARIJA


**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI**

*Kamolova Dilnavoz, Shomurodova Shahzoda*
PAST TEMPERATURALAR HOSIL QILISH VA GAZLARNI SUYULTIRISH METODLARI ............5-10

**TEXNIKA FANLARI**

*Mirabdullayev Fayzullo, Tursunov Otabek*
5G TEXNOLOGIYASIDAGI XAVFSIZLIK MUAMMOLARINING TAHLILI ........................................11-18

*Tursunov Otabek, Shakarov Muhiddin*
ZAMONAVIY SIMMETRIK SHIFRLASH ALGORITMLARINI CHIZIQLI KRIPTOTHLILI ..........19-27

**TARIX FANLARI**

*Ergasheva Mohichexra*
ROSSIYA IMPERIYASI SIYOSATINING ZARAFSHON VOHASIDAGI ETNIK MUVOZANATGA TA'SIRI: TARIXIY MANBALAR ASOSIDA TAHLIL ...........................................28-31

*Oralov Dostonbek*
BIRINCHI JAHON URUSHINING TURKISTON O'LKASIDAGI IJTIMOIY-SIYOSIY JARAYONLARGA TA'SIRI ...........................................32-35

**IQTISODIYOT FANLARI**

*Арипова Анна*
ЦИФРОВИЗАЦИЯ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЁТА КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ СДЕЛОК СЛИЯНИЯ И ПОГЛОЩЕНИЯ ...........................................36-40

*Шарипов Жамшид, Нуридинов Рамзидин*
СУНЪИЙ ИНТЕЛЛЕКТ: ТАЪЛИМ СИФАТИНИ ОШИРИШ ДРАЙВЕРИ .................................41-48

*Авдошкина Олеся*
ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПОДДЕРЖКА МАЛОГО БИЗНЕСА ЧЕРЕЗ КРЕДИТНЫЕ ИНСТРУМЕНТЫ: НА ПРИМЕРЕ НАМАНГАНСКОЙ ОБЛАСТИ ...........................................49-56

*Azamatov Otabek*
PROBLEMS IN IMPROVING THE COMPETITIVENESS OF SMALL BUSINESSES AND PROPOSED SOLUTIONS ...........................................57-61

*Eraliyev Sardorjon*
AGROBIZNESDA INVESTITSIYA FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI ...........................................62-64

*Isomuxamedov Akbarjon*
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA XARAJATLAR VA DAROMADLAR HISOBINI TASHKIL ETISH VA TAHLIL QILISH ...........................................65-67

**FILOLOGIYA FANLARI**

*Mamatova Feruza*
ANTROPOFENOMENLAR: LINGVOKOGNITIV, LINGVOMENTAL, DINAMIK VA STATIK TURLARI ...........................................68-73

*Yuldasheva Xurshida*
O'ZBEK ADABIY MEROSINING RAQAMLI PLATFORMALARDA O'RGANILISHI: IBN SINO MISOLIDA ...........................................74-76

*Abduvaliyeva Kamola*
"SHAJARAYI TURK" ASARIDAGI ETNONIMLARNING
GRAMMATIK TUZILISHI VA YASALISHI ........................................ 77-82

**GEOGRAFIYA FANLARI**

*Abdirayimova Ozoda*
SURXONDAYO VILOYATIDA BUDDIZM OBIDALARI ASOSIDA ZIYORAT TURIZMINI
RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI ........................................ 83-86

**YURIDIK FANLAR**

*Alimjonov Fayozbek*
LITSENZIYALASH TUSHUNCHASI, TIZIMLARI VA ULARNING TARIXIY RIVOJLANISHI ...... 87-91

*Muradullayeva Sevinch*
SOLIQ NAZORATINI AMALGA OSHIRISHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI ..................... 92-96

*Abdullaeva Sabokhat*
ISSUES OF IMPROVING INTERNATIONAL LEGAL MECHANISMS TO COMBAT
TRANSNATIONAL CRIMES TARGETING CRYPTOASSETS ........................................ 97-105

**PEDAGOGIKA FANLARI**

*Haqberdiyev Baxtiyor, Ismag'ilova Madinabonu, Imomnazarova Durdona*
TASVIRIY SAN'AT VA MUHANDISLIK GRAFIKASI MUTAXASSISLARINING
GRAFIK VA IJODIY KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH ........................................ 106-108

*Разикова Дилфуза*
ЭФФЕКТИВНОСТЬ ДИАГНОСТИЧЕСКОГО ОЦЕНИВАНИЯ ПРИ ОБУЧЕНИИ СТУДЕНТОВ
НЕФТЕГАЗОВОГО ПРОФИЛЯ ........................................ 109-112

*Salimova Bakhora*
TEACHING METHODOLOGY: PRINCIPLES, APPROACHES, AND INNOVATIONS ................ 113-117

*Bakhronova Mahliyo*
"DEVELOPING PROFESSIONAL COMPETENCE IN TEACHING ENGLISH" ............................ 118-123

*Bekmuradova Gulnoza*
TALABALARNI ILMIY-TADQIQOT ISHLARGA JALB ETISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK
VA ILMIY-METODIK ASOSLARI ........................................ 124-129

*Rahimov Javohir*
DUAL TA'LIMNI TASHKIL ETISHDA 4K VIDEO STUDIYASIDAN FOYDALANISH
VA VIDEODARSLARNI YOZISHNING DASTURIY METODIK TA'MINOTI ............................ 130-133

*Юсупова Сабохат*
ЗНАЧЕНИЕ РАЗВИТИЯ НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ В ПРОГРЕССЕ ОБЩЕСТВА ............. 134-137

## GEOGRAFIYA FANLARI

# SURXONDAYO VILOYATIDA BUDDIZM OBIDALARI ASOSIDA ZIYORAT TURIZMINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

**Abdirayimova Ozoda Xurramovna,**
Termiz Davlat Unversiteti magistranti.
E-mail: ozodaabdirayimova@gmail.com
Tel: +998 93 792 97 99
ORCID:
Termiz, O'zbekiston

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Surxondaryo viloyatida mavjud buddizm obidalari asosida ziyorat turizmi yangicha yo'nalishi sifatida tadqiq etilgan. Qolaversa ushbu maqolada Surxondaryo viloyatida mavjud buddizm obidalarining diagrammalari shakllantirilgan bo'lib ushbu ma'lumotlar asosida viloyatning turizm imkoniyatlari ochib berilishiga xarakat qilingan va tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** buddizm, stupa, ibodatxona, tarixiy-madaniy obyektlar, ziyorat turizmi, Dalvarzintepa, Qoratepa, Fayoztepa, Zurmala.

# OPPORTUNITIES FOR THE DEVELOPMENT OF PILGRIMAGE TOURISM BASED ON BUDDHIST MONUMENTS IN SURKHANDARYA REGION

**Abdirayimova Ozoda Khurramovna**
Master's student, Termiz State University
Termiz, Uzbekistan

**Abstract.** This article explores pilgrimage tourism as a new direction based on the existing Buddhist monuments in the Surkhandarya region. Furthermore, the article presents diagrams of the Buddhist sites located in the region, and based on this data, attempts are made to reveal and analyze the tourism potential of the area.

**Key words:** Buddhism, stupa, temple, historical and cultural sites, pilgrimage tourism, Dalverzin Tepe, Karatepa, Fayaz Tepe, Zurmala.

**DOI:** https://doi.org/10.47390/978-9910-09-204-6/uzb-15

## KIRISH VA DOLZARBLIK

Butun Jahon turizm tashkilotining (UNWTO) xabar berishicha XXI asr – turizm asri deya takidlanmoqda. Darhaqiqat bugungi kunda turizm jahon tovarlar va xizmatlar eksportida to'rtinchi, undan keladigan daromad bo'ycha esa uchinchi o'rinda turadi. Turizm butun dunyo yalpi ichki mahsulotidagi ulushi esa 10 % ni tashkil etmoqda. Buning natijasida turizmni rivojlantirish va sayyohlarni jalb etish chora-tadbirlari dunyoning ko'plab davlatlarida yo'lga qo'yilgan. Shuningdek turizmning yangicha yo'nalishlari bo'lgan ekoturizm, etnografik turizm, ziyorat turizmni rivojlantirish ham muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Boy tarixga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasi etnografik turizmni rivojlantirishga yetarlicha turistik salohiyatga ega davlatlardan biri hisoblanadi. Jumladan yurtimizning tarixini o'zida namayon etgan qadimgi davrlardan bizgacha yetib kelgan mingdan ortiq qadamjoylar shular jumlasidandir. Turizmni rivojlantirish borasida yurtimizda ham ko'zga ko'rinarli ishlar

amalga oshirilmoqda xususan O‘zbekiston Respublikasi 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasining 35-maqsadida “O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qiling” dasturi doirasida mahalliy sayyohlar sonini 12 mlndan oshirish hamda respublikaga tashrif buyuradigan xorijiy sayyohlar sonini 9 mln nafarga yetkazish va maqsadda Turizm va madaniy meros obyektlari infratuzilmasini rivojlantirish hamda 8 mingdan ortiq madaniy meros obyektlaridan samarali foydalanish bo‘yicha davlat dasturini qabul qilishga oid chora tadbirlari ko‘rilganligi yurqoridagi fikrlarimizning dalili hisoblanadi. Yurtimizning sayyohlik yo‘nalishida buddizm turizmi ham muhim o‘rin tutadi. O‘zbekiston Respublikasida Surxondaryo viloyati turizmning buddizm yo‘nalishi bo‘ycha yagonaligi va shunga taaluqli obidalarning qadimiyligi bilan ajralib turadi. Surxondaryo viloyatida buddaviylikka aloqador ko‘plab yodgorliklar mavjudligi O‘zbekistonda buddaviylik turizmi istiqbolini belgilab beradi.

So‘ngi yillarda jahon tajribasidan foydalanib innovatsion loyhalarni amalga oshirish va sayyohlarga qulaylik yaratishda keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda 2020-yil O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi e’lon qilgan “Respublikamiz hududlaridagi buddizm obidalari tur marshrutlarining 3D modellarini yaratish” innovatsion loyiha granti yurtimizda buddizm turizmini yanada rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Umuman olganda O‘zbekistonga sayyohlarning tashrifiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak Janubiy va Sharqiy Osiyo davlatlaridan keldigan turistlarning salmog’i yildan yilga oshib borayotganligiga guvoh bo‘lamiz bunga yaqqol misol sifatida esa quyidagi diagrammada ularning asosiy ko‘rsatkichlarini tahlil qilamiz.




Yuqoridagi diagrammadan ham ko‘rishimiz mumkinki O‘zbekistonga tashrif buyurayotgan Janubiy va Sharqiy Osiyo davlatlari orasida Xitoy, Hindiston va Yaponiya davlatlaridan kelayotgan turistlarning salmog’i yuqori bo‘lib, so‘ngi yillarda esa Hindistonning ulushi oshganligini ko‘rishimiz mumkin.

**TADQIQOT NATIJALARI.**

Tadqiqot natijalari tahlil qilinganda O'zbekiston Respublikasi bo'ylab buddizm obidalarining eng ko'pi Surxondaryo viloyatida ekanligi ma'lum bo'ldi. Birgina Surxondaryo viloyatining o'zida Buddizm obidalarining 10 dan ortiq maskanlari borligi aniqlandi bu esa mavjud obidalarining bevosita tarix bilan bog'liqligi barchamizga ma'lum (Kushon podsholigi davri milodiy 1- 4 asrlar). Bundan tashqari Buddaviylik obidalari Toshkent, Farg'ona, Samarqand viloyatlarida ham mavjud bo'lib ularni biz quyida diagrammada ko'rishimiz mumkin.




**Manba**: Turizm va sport vazirligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Ushbu ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, Surxondaryo viloyatida buddizm obidalari asosida turizmni rivojlantirish imkoniyatlari keng ekanligi ya'niy buddizm obyektlarining 70 % Surxondaryo viloyatida joylashganligi bilan qolgan viloyatlardan ajralib turganligini ko'rishimiz mumkin. Surxondaryo viloyatida buddizm obidalarining asosiy qismi Termiz, Sho'rchi tumanlarida mavjud bo'lib ular "Fayoztepa", "Qoratepa", "Dalvarzintepa" yodgorliklari hisoblanadi, ushbu obidalar tarixdan bizgacha yetib kelgan tarixiy va madaniy maskanlar sanaladi.

**XULOSA**. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Surxondaryo viloyati o'zining tarixiy-madaniy obidalarining o'ziga xosligi va xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Viloyat hududidagi qadimiy yodgorliklar, me'moriy obidalar nafaqat mintaqa aholisining, balki xorijiy sayyohlarning ham e'tiborini tortmoqda. Shu bilan birga, ushbu obidalar hududning tarixiy rivojlanish bosqichlarini o'rganishda muhim manba hisoblanadi.

Turizmning buddizm obidalari asosidagi turini yanada rivojlantirish uchun esa quyidagilarni taklif qilaman:

- Aholisining ko'pchiligi buddizmga e'tiqod qiladigan Xitoy, Yaponiya, Koreya Respublikasi, Hindiston, Vyetnam, Tailand kabi mamlakatlar hamda Rossiyaning Sbir va Uzoq Sharq mintaqalaridan ziyoratchilarni jalb etish uchun hamkorlik aloqalarini rivojlantirish.
- Tashrif buyuruvchilar maqsadidan kelib chiqib turizm mashrutlarini ishlab chiqish.
- Tarixiy-madaniy obyektlarni tanitish maqsadida sifatli videorolik tayyorlash (ingliz tilida).

Buddizm yodgorliklarning tarixiy dizaynini zamonaviy dizayn bilan uyg’unlashtirish lozim.

**Adabiyotlar/Литература/References:**

1. Buddizm obidalari – ziyorat turizmini rivojlantirishning yangi yo‘nalishi: Konferensiya materiallari to‘plami. –T.: “EFFECT-D”, 2021. –B.196-198.
2. To‘rayev Q.T., Qurbonov Sh.B. O‘zbekistonda diniy turizmni rivojlantirish va hududiy tashkil etishni takomillashtirishning geografik asoslari. Monografiya.- Toshkent, 2023
3. Xo‘jayev A. Farg‘ona tarixiga oid ma’lumotlar. –F.: Farg‘ona, 2013. –288 b.
4. Древности южного Узбекистана. Албом-каталог (на русск., японск., англ. яз.) – Токио, 1991.
5. Пидаев Ш.Р. Буддийское наследия Узбекистана. –Токио, 2019. –97 с.
6. Ўзбекистон География жамияти ахбороти. 57-жилд / Илмий журнал. –Тошкент, 2020. 143-147 бетлар. ISSN 0135-9614. https://www.uzgeo.uz

# O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM ISTIQBOLLARI

**I RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, 23-iyun


**Mas’ul muharrir:** *F.T.Isanova*
**Texnik muharrir:** *N.Bahodirova*
**Diszayner:** *I.Abdihakimov*

**O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM ISTIQBOLLARI.** *II Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari.* – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 138 bet.

**Elektron nashr**: https://konferensiyalar.uz/uzbekistan-2030

**Konferensiya tashkilotchisi:** Scienceproblems Team

**Konferensiya o‘tkazilgan sana:** 2025-yil, 23-iyun

**ISBN** 978-9910-09-204-6



**Barcha huqular himoyalangan.**
© Scienceproblems team, 2025-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.